

1-iyun-"Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni"



1-iyun-"Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni"

Bugun, Termiz shahar madaniyat bo'limi ijodiy jamoasining 1 iyun - "Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni" munosabati bilan navbatdagi tashrifi Termiz shahar 41-sonli Davlat xususiy sherikchilik asosidagi oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'ldi. O'zining qiziqarli shou kontsert dasturlari bilan Termiz shahar madaniyat bo'limining taniqli estarada xonandalari, shuningdek, madaniyat bo'limi qoshida tashkil etilgan "Lola" raqs jamoasi, "Mo'jizalar olami" fokus va illyuziya havaskorlik jamoasi hamda "Faruxbek" darbozlik sirk jamoalarining navbatma-navbat chiqishlari barcha bolajonlarni ota-onalarga xushkayfiyat ulashdi. Tadbir davomida Surxondaryo viloyat Milliy Gvardiyasi boshqarmasi xodimlari ham ishtirok etib, bolajonlarni bayram munosabati bilan tabriklashdi. Yuzlarida bir olam quvonch va tabassum hamroh bo'lgan bolajonlar yangragan qo'shiqlarda maroqli raqslarga tushib, har bir fokus va illyuziya nomerlarini olqishlar bilan kuzatib borishdi hamda ayiq polvon chiqishlarini

maroq bilan tomosha qilishdi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

